



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





CHET TILINI O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Jamoliddinova Zilolaxon Umidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Chet tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

Quziyev Sarvarbek Ilmiddinovich

Farg'ona davlat universiteti

Chet tillar fakulteti Ingliz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchi, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilni o'qitishning lingvodidaktik asoslari o'rganilgan. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, til hodisalarining lingvodidaktik nazariyasining ahamiyati shundaki, u til o'rganish metodining didaktik tili va lingvistik ma'noning lingvodidaktik asoslari haqidagi metodologik konsepsiyadan iborat bo'lib, ta'lim jarayonini optimallashtirishga qaratilgan. Lingvodidaktikaning nazariy asosini uning elementlari tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Lingvodidaktika, pedagogik psixologiya, metodika, lingvistik ma'no, o'qitish muammolari, professional maqsad.

Pedagogik psixologiya va lingvodidaktikaning jihatini – til o'rganishning turli jihatlarini bo'lib, ular til bilan turli qarashlardan kelib chiqqan holda shug'ullanadi. Pedagogik psixologiyani til yordamida o'qitish muammolari qiziqtiradi, bu esa har doim ham tilning o'ziga o'qitishni nazarda tutmaydi, u xoh ona tili xoh chet tili bo'lsin. Lingvodidaktika nuqtai nazaridan til o'zlashtirilayotgan chet tilidagi o'quv jarayonida kommunikatsiya vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu har ikkala qarash bir-birini to'ldirishi mumkin, chunki ulardan har biri o'qitish jarayoni bilan bog'liqdir.

O'rganish jarayonida ona tili darajasi bilan birga o'rganilayotgan tilning kommunikativ darajasi ham shakllanadi, bu ona tilini bilish darajasidan farq qiladi. Tilning lingvodidaktik – nazariy, amaliy-nazariy va amaliy o'rgatilishi chet tiliga o'rgatishning asosiy muammolaridan birini hala qiladi.

A. B. Builev lingvodidaktikani chet tillariga o'qitish nazariyasi va amaliyoti deb atab, u tillarga o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi deya ta'kidlagan. Tadqiqotchi, talabani lisoniy shaxsi rivojlanuvchi xususiyatga egaligini qayd etgan. Shuningdek, O. L. Komenskaya "lisoniy shaxs nazariyasi turg'un constant tushuncha emas. U ham vertikal(yangi darajalarni aniqlash hisobiga), ham gorizantal (mavjud darajalarni detallashtirish hisobiga) bo'ylab diversifikatsiya qilinishi mumkin" – deya fikr bildirgan.

Bularning barchasi N. D. Galskova yo'nalishini tasdiqlaydi, qaysiki lingvodidaktika fan sifatida lisoniy shaxsning lingvokognitiv tuzulishini anglashi va ta'riflashi lozim, uning rivojlanishi, qonuniyatlarini asoslashi shuningdek ham o'zlashtirish/o'qitish obyektining o'ziga xos jihatlarini, ham bu jarayonning barcha subyektlarining o'zaro ta'sirini asoslashi lozim deb hisoblaydi.

A. S. Markosyan lingvodidaktika deganda tilni o'qitish maqsadlari uchun ta'riflash tamoyillarini tushunadi. Uning fikricha, lingvodidaktika- bu o'rganilayotgan tilni ta'riflash modellarini ko'rish nazariyasi, qaysiki o'quv jarayonida ishlatish uchun mo'ljallangan.





Professional maqsadlarda chet tilini o'rgatishda muloqot jarayoni bo'ladi, demak professional didaktika komunikatsiya nazariyasi bilan bog'liq madaniyatlararo ishbilarmon va professional muloqotdan iborat.

Professional lingvodidaktika maxsus fanaga murojaatsiz amalga oshmaydi, u haqidagi bilimlarini kengaytirish chet tili vositalari orqali sodir bo'ladi.

Lingvodidaktikaning eng muhim muammolaridan biri o'quv materillining o'rganilayotgan til fenomeniga mosligidan iborat, bunda terminologiyaning fan tilining muhim tizimi sifatida funksional ta'riflash ko'rsatilgan muammoning yechimiga yaqinlashish imkonini beradi.

A.M. Novikovaning fikricha, "o'rganish predmeti ushbu fan tomonidan o'rganilayotgan va muayyan mantiqiy hamda belgili shakldagi xususiyatlar, aloqalar va qonuniyatlar jamlanmasidan iborat".

Xorijiy tilni mutaxassislik sifatida egallash shunday holatlarda zarur bo'ladiki bu zarurat pragmatik xususiyat kasb etib, mutaxassis o'zining chet tilidagi bilimlarini kasb faoliyati sohasida samarali qo'llay olish kerak bo'ladi.

Pragmatika, sotsiolingvistika va chet tillarini o'qitish uslubiylatining integratsiyalashuvi metodika fanidagi yangi yo'nalishga asos soladiki, uning ishchi nomi paragmalingvodidaktika deb yuritiladi.

Paragmalingvodidaktikaning ustuvor vazifasi- talabalarni tayyorlash amaliyotida zamonaviy ingliz tilida sodir bo'layotgan global o'zgarishlarni hisobga olishni ta'minlashdan iborat, bu o'z navbatida chet tilidagi muloqot diapazonini kengaytirish, til vositalaridan nutqiy muloqotning funksional uslubiga muvofiq samarali foydalangan holda o'z fikrlarini aniq, tiniq va mantiqan to'g'ri ifodalashga xizmat qiladi.

Ta'lim mazmuniga paragmalingvodidaktik yondashuv talabalarning turli madaniyatlarga xos bilimlarini oshirishni ko'zda tutadi. Bunda o'z mamlakati va o'rganilayotgan til mamlakati madaniyatlari orasidagi o'xshash va farqli jihatlarni bilish va tushunish, ikki mamlakatning mintaqaviy va ijtimoiy o'ziga xosligini bilish va tushunish, shuningdek, jahon madaniyatlarining kengroq doirasini bilish nazarda tutiladi.

Talabalarning ingliz tilidagi nutqini pragmatizatsiyalashning samarali vositasi ingliz tili leksik tarkibini egallash zaruratidan kelib chiqadi. Mustaqil to'liq tarkibli leksik birlik sifatida ishlatiladigan qisqartmalar va zamonaviy ingliz tili lug'atini boyituvchi boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar shular jumlasidandir. Bunda o'rganilayotgan tilning rivojlanish tendensiyarini hisobga olish (atamashunosligining boyib borishi) lozim.

Lingvistika va didaktikaning bog'liqligi tizimlilik tamoyilining amalga oshirilishi chog'ida ayniqsa yaqqol ko'rinadi, chunki tilning o'zi bir-biri bilan muayyan munosabatda bo'lgan va uning yaxlitligini tashkil etuvchi elementlar tizimidan tarkib topadi. Tilning har bir tarkibiy qismi unga qarshi qo'yilgan boshqa qismlar bilan solishtirishda namoyon bo'ladi, til hosalarining (fonetik, leksik, so'z yasovchi, Grammatik) belgilari dixotomik oppozitsiyalarni hosil qiladi.





O'qitish vositasi sifatida til o'rganishning nazariy va amaliy asoslari o'rganilayotgan til hodisalarining ona tilining tegishli hodisalari va ekstralingvistik vositalari bilan bog'liqligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Shu asosda taqdim etilayotgan materialning ko'rgazmaliligi, namoyishkorligi kabi tarkibiy qismlarning didaktik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Biroq bunda asosiysi shundaki, o'qitilayotgan tilning lisoniy (moddiy) va lingvistik (ideal) asoslarini aniqlashdagi sof lingvistik yondashuv muayyan lisoniy va nutqiy muhitga talabalar uchun yetarli bo'lmaydi. Shu boisdan til o'rganish jihatlarini ularning o'quv amaliyoti bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan dolzarbdek ko'rinadi. Metodikaning fan sifatidagi ontologiyasida uning mazmuniga xos ikki toifa ajratib ko'rsatiladi.

Oliy ta'limda tilni o'qitishning zamonaviy tizimi muayyan maqsadga yo'nalgan o'quv jarayoni ishtirokchilari – talabalar bilan demokratik prinsipli muloqotga ega o'qituvchilar o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Mazkur tizim quyidagilardan iborat:

- Til o'qitish maqsadi va vazifasi
- O'quv material mazmuni
- O'zlashtirish qonuniyati
- Tilni o'qitish texnologiyasi, tashkiliy shakllari, vosita va metodlari.

Ona tili va chet tillarning kontrastiv tahlilida tadqiqot predmeti o'quv jarayonida talabalarning ona tiliga taqqoslab o'rganilayotgan til emas, balki o'quv jarayonidan tashqarida bo'lgan til tadqiqot predmeti hisoblanadi. Til yoki tillarga qaratilgan faoliyatni faqat lingvistikaga kiritish mumkin. Aniqrog'i, lingvodidaktikaga maxsus tilshunoslikka oid, didaktik ahamiyatga ega bo'lgan va shu ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari ham kiritilishi mumkin.

Chet tilini o'qitishning zamonaviy metodikasi o'zaro bog'liq bo'lgan uslubiy tushunchalarning mantiqiy tizimi, uslubiy fan va tushuncha vositalaridir. Shuningdek, ishchi farazlarni sinovdan o'tkazuvchi eksperimental baza. Bunda metodikani o'qitishning muhim maqsadi (qanday v anima yordamida o'qitish) tashkil etadi. shu bilan birga o'qitish jarayoni ishtirokchilari bilan bog'liq muammolar, ya'ni o'qituvchi (fanni kim o'qitadi?) va ta'lim oluvchi (fanni kim o'rganadi?) faoliyatini ham tahlil qiladi.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan muhim masala til va nutqning nisbati bilan bog'liq. Ya'ni tilning nutqdan ajratilishi lingvodidaktik nazariyada qanday aks etish va u darslik mikro tili hamda didaktik nutqning o'qitish vositasi sifatidagi konsepsiyasiga qay darajada olib kelishi lingvodidaktikaning yana bir predmeti ni tashkil qiladi. Tilni lingvodidaktik – nazariy, amaliy – nazariy va amaliy o'rganilishi chet tilini o'rganishning asosiy muammolaridan birini hal qiladi. Til o'qitish metodikasi uchun lingvistika yana bir asosiy (bazis) fani hisoblanadiki, uning obyekti “til, uning butun xususiyat va funksiyalari hajmida tilning ishlatilishi va tarixiy rivoji” hisoblanadi. Tadqiqot predmeti sifatida obyektning turli tomonlari: fonetika va grafika, leksika, so'z yasash, morfologiya va sintaksis , nutq madaniyati va stilistika ko'rib chiqiladi. Bilim olishga qaratilgan faoliyat muayyan





maqsad belgilangan maxsus reja asosida yo'naltirilganda, ta'lim berish va o'qitish didaktik munosabati yuzaga keladi. (1.1-jadvalga qarang)

1.1-jadval

Til o'qitish metodikasida lingvodidaktikaning funksiyalari va vazifalari.

№	Lingvodidaktika funksiyalari	Lingvodidaktika vazifalari
1	ilmiy – nazariy (tilga o'qitish jarayonini tadqiq qilish)	Til ta'limi kontsepsiyalari – lingvosentrik va antroposentrik yo'nalishlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish.
2	Konstruktiv modellashtirish (ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'zgartirish)	Tillarga o'qitishning mohiyati va samaradorligi shartlarini ta'riflash va tushuntirish
3	Integrative (tilga o'rgatish jarayonini aniq asoslash maqsadida faylasuflar, lingvistlar, pedagoglar, metodistlar, kommunikativ nazariyasi va informatika bo'yicha mutaxassislarning ilmiy yutuqlarini birlashtirish)	Tillarga o'qitishning predmetli ta'lim maqsadlari, o'quv materialini saralash va tizimlash tamoyillari tilga o'qitish vositalari, uslub va usullari, joriy va chegaraviy nazorat shakllari va usullaridan iborat metodik tizimlarini nazariy asoslash
4		Tillarga o'qitishning tashkiliy shakllarini, yangi o'qitish tizim va texnologiyalari paydo bo'lishini nazariy asoslash va anglash

Chet tilini o'qitishda zamonaviy lingvodidaktikaning tendensiyalari quyidagilardan iborat:

- chet tilini o'qitish maqsadi;
- lingvodidaktika – chet tilini o'qitish metodologiyasi sifatida;
- chet tilini o'qitishda pragmalingvodidaktika;

“Chet tilini o'qitish maqsadi” metodik tushuncha xorijiy tillarni o'qitish metodikasi va lingvodidaktikasining asosiy talablari tushuniladi.

Haqiqatan ham o'quv sharoitda chet tilini egallash jarayoni psixolog, psixolingvist, lingvist, va metodistlarni qiziqtirib kelgan. Faqatgina lingvodidaktika integrativ fan sifatida tilni o'zlashtirish mexanizmlari hamda o'quv sharoitida mazkur mexanizmlarni boshqarishni amalga oshiradi.

Ma'lumki chet tilini o'qitish nazariyasini tilni o'zlashtirish nazariyasi yoki lingvodidaktika, xorijiy til didaktikasi va tanlangan tilni o'qitish metodikasi tashkil etadi.

Chet tilini pragmatik xarakter va kasbiy faoliyatda o'zga til kompetensiyasidan foydalana olish qobiliyati bo'lsagina mutazassis talaba bo'yicha o'zlashtirishi mumkin. Pragmatika, sotsiolingvistika va metodologiyaning integratsiyasi, o'z navbatida, pragmalingvistikaning maqsadi chet tili kompetentsiyasini, madaniyatlararo muloqotni o'rgatish muammolarini o'rganishdir.

Xorijiy tillarni o'qitishning lingvodidaktik asosi ta'lim oluvchining kompetensiyalarini shakllantirishga va rivojlantirishga imkon beradi. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari pedagogik tushuncha sifatida mohiyat, struktura hamda tasnifga ega. N.B.Eluxina o'z tadqiqotida diskurs kompetensiyasi va uning professional muloqotdagi ahamiyatini tahlil qilgan, O.B.Kudryashova yozma





nutqqa o'rgatishda kommunikativ kompetensiyaning komponentlari bo'yicha izlanishlar olib borgan, N.I.Arshinova esa ingliz tilini ikkinchi mutaxassislik sifatida AKT vositasida o'rganilishida lingvistik kompetensiyaning shakllantirishni tahlil qilgan, kommunikativ kompetensiya va uning rivojlanishida ijtimoiy – psixologik omillarni I.B.Burtovaya o'rgangan, bo'lajak mutaxassislik kasbiylik kompetensiyasini shakllantirishni J.Jalolov tahlil qilgan bo'lsa, rahbarning psixologik kompetensiyasi bo'yicha P.N.Pijova tomonidan izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya shakllanishi va treningini L.N.Timashkova bilan E.M.Sidorenko o'z tadqiqotlarida ifodalagan.

Tilda predmet, voqea va hodisalar, ularning belgilarini har doim ham bir so'z bilan ifodalash imkoni bo'lavermaydi. Shuning uchun ham predmet yoki tushunchani ikki yoki undan ortiq atamalarining birikmasidan hosil bo'lgan bir so'z orqali ifodalash odat tusiga kirgan. Ingliz tili mashg'ulotlarida neyrojarrohlik atamalarini o'qitish jarayonida ularning lingvistik xususiyatlariga etibor berish lozim. Bunda talabalar neyrojarrohlik atamalar, ularning yasash usullarini o'zlashtirishlari, tibbiy bilim asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda sohaga oid atamalarining tipologik tasnifini aniqlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ilmiddinovich, K. S. (2022). Integrating 21st Century Skills into Teaching Medical Terminology. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 114-117.
2. Ilmiddinovich, K. S. (2021). The methodologies of learning english vocabulary among foreign language learners. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 501-505.
3. Ilmiddinovich, K. S. (2020). Methods Of Teaching English To Young Learners. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 65-69.
4. Sarvarbek Ilmiddinovich Kuziev MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modern-methods-of-teaching-english-language-at-medical-universities> (дата обращения: 10.05.2023).
5. Kuziev, S. (2022). AT ENGLISH CLASSES USING APPROACHES AND METHODS OF ON TEACHING SPECIAL TERMINOLOGY IN MEDICAL UNIVERSITIES. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(12), 265-269.
6. Кузиев, С. И. (2020). COMMUNICATION AMONG PHYSICIANS AND HEALTHCARE ASSOCIATES: THE ROLE AND RANK OF MEDICAL TERMINOLOGY IN SURGERY, PUBLIC HEALTH AND THE HISTORY OF MEDICINE. Вестник науки и образования, (13-3), 29-31.
7. Кузиев Сарварбек Илмиддинович Общение между врачами и медицинскими работниками: роль и ранг медицинской терминологии в хирургии, здравоохранении и истории медицины // Вестник науки и образования. 2020. №13-3 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschenie-mezhdu-vrachami-i-meditsinskimi-rabotnikami-rol-i-rang-meditsinskoy-terminologii-v-hirurgii-zdravoohranenii-i-istorii> (дата обращения: 10.05.2023).
8. Ilmiddinovich, K. S. (2020). Online evaluating the language learners on the platforms of the social networking services and delivery people. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS), 10(11).

